



## XIRURGIK BEMORLARNI PARVARISHLASH

*Muallif: Xabibullayeva Muazzamxon Iftixorjon qizi*

*Rishton Abu Ali ibn sino nomidagi Jamoat Salomatligi*

*texnikumi o'qtuvchisi*

**Annotatsiya :** Xirurgik bemorlarni parvarishlash — bu jarrohlik amaliyotiga tayyorlanayotgan yoki operatsiyadan so‘ng tiklanayotgan bemorlarga tibbiy va hamshiralik yordamini ko‘rsatish jarayonidir.

### Kirish

Xirurgik bemorlarni parvarishlash — bu jarrohlik amaliyotiga tayyorlanayotgan yoki operatsiyadan so‘ng tiklanayotgan bemorlarga tibbiy va hamshiralik yordamini ko‘rsatish jarayonidir. Bunday parvarish yuqori aniqlik, steril sharoit va bemor holatiga nisbatan alohida yondashuvni talab etadi. Jarrohlik bemorlarini to‘g‘ri parvarishlash ularning sog‘ayishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

### Asosiy qism

Xirurgik bemorlar bilan ishlash bosqichlari

Xirurgik parvarish uch asosiy bosqichga bo‘linadi:

Operatsiyagacha bo‘lgan davr (preoperatsion bosqich)

Bemorni operatsiyaga tayyorlash, ya’ni to‘liq tekshiruvlar o‘tkazish, psixologik tayyorgarlik ko‘rish, ovqatlanishni cheklash va dori-darmonlarni qabul qilishni tartibga solish.

Operatsiya jarayoni (intraoperatsion bosqich)

Hamshira bu davrda steril sharoitga qat’iy rioxaya qilish, jarrohlik guruhiga yordam ko‘rsatish va bemorning holatini doimiy nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Operatsiyadan keyingi davr (postoperatsion bosqich)

Eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bemorning holatini tiklash, og‘riqlarni kamaytirish, infeksiya oldini olish, parhezga rioxaya qilish va psixologik ko‘makni o‘z ichiga oladi.

Xirurgik bemorlarni parvarishlashning asosiy yo‘nalishlari



Toza va gigiyenik sharoitni saqlash

Yaralarni har kuni steril bog‘lamlar bilan almashtirish, qo‘l gigiyenasiga qat’iy rioya qilish infektsiya xavfini kamaytiradi.

Psixologik yordam

Operatsiyadan oldin va keyin bemorlarda qo‘rquv, xavotir va tushkunlik holatlari bo‘lishi mumkin. Hamshira ularni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Ovqatlanish va suyuqlik rejimi

Operatsiyadan so‘ng bemorlar uchun yengil, oson hazm bo‘ladigan ovqatlar tavsiya etiladi. Suv balansi ham doimo nazoratda bo‘lishi zarur.

Jismoniy holatni kuzatish

Tana harorati, qon bosimi, puls, nafas olish tezligi muntazam o‘lchanib, o‘zgarishlar haqida vrachga xabar beriladi.

Murakkab holatlardagi parvarish

Yiringli yaralar — alohida steril vositalardan foydalaniladi.

To‘sak yaralari (prolej) — bemorni har 2 soatda burishtirib turish, maxsus matraslardan foydalanish zarur.

Nafas olish muammolari — kislород terapiyasi va nafas mashqlari qo‘llaniladi.

### Xulosa

Xirurgik bemorlarni parvarishlash — bu nafaqat tibbiy bilim, balki insonparvarlik, sabr-toqat va mas’uliyatni talab qiluvchi jarayondir. Malakali hamshira bemorning operatsiyadan muvaffaqiyatli chiqishida, tiklanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli har bir tibbiyot xodimi xirurgik parvarish tamoyillarini chuqr o‘zlashtirishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova M.X. “Pediatriyada allergik kasalliklar”. Toshkent: Tibbiyot, 2020.
2. World Health Organization (WHO). "Infant Feeding Guidelines for Allergy Prevention". Geneva, 2021.
3. Karimova D.K. va boshqalar. “Onalar ovqatlanishi va chaqaloq salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik”. O‘zbekiston pediatriya jurnali, 2022.



4. Ministry of Health. "Ona suti orqali allergik ta'sirlarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar". Toshkent, 2023.